

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.Shermuhammadov**

Xalq ardog'idagi til - mangu barhayot ..... 6

## PEDAGOGIKA

**T.Egamberdiyeva, O.Ashurova**

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning tahliliy omillari ..... 9

**U.Maqsdov, R.Rahmonova**

Ommaviy axborot vositalari mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish obyekti sifatida ..... 12

**M.Suyunova**

Pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish tamoyillari ..... 17

**N.Saidova, B.Abdullayeva**

Bo'lajak boshlangich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentliligini rivojlantirishni modeli ..... 20

**X.Tojiboyeva**

O'smir yoshdagagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ..... 24

**A.Kalliyev**

Ijodkor talabalar bilan ishlashda pedagoglik mahorati va usullar ..... 27

**I.Usmonaliyev**

Tarixiy tafakkur orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari usullarini pedagogik taxlili ..... 32

## FALSAFA, SIYOSAT

**A.Yuldashev**

O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasini ta'minlashda ta'limning ahamiyati ..... 37

**Q.Aliqulov**

Innovatsion va transformatsion o'zgarishlarning yoshlari iqtisodiy faolligiga ta'siri ..... 41

## ТАРИХ

**X.Boymirzayev, Z.Jobborov**

Sovet hukumatida 20-30 yillarda amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari tarixidan ..... 46

**X.Mamajonov**

Amir Temur davlati va oltin o'rda o'rtaidagi manfaatlar to'qnashushi va diplomatik aloqalarning boshlanishi ..... 49

**A.Aloxunov, A.Mamasiddiqov**

Farg'ona vodiysidagi dalvarzin yodgorligining mudofaa tizimi xususida ..... 53

**A.Abduxalimov**

Vodiylar qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishi ..... 57

**I.Yusupov**

O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi ..... 62

**I.Turdiyev**

Jizzax vohasi aholisining oila va nikoh bilan bog'liq an'analari va Marosimlari ..... 67

**Liang Yun, Xi Tongyuan, Ra'nogul Yusuf, N.Kambarov**

O'zbekistonning Samarqand shaxridagi Sazagan yodgorligining M11 qabrida olib borilgan qazuv tadqiqotining hisoboti ..... 70

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**L.Axmadaliev**

Po'latjon Qayyumiylar zamondoshlari xotirasida ..... 85

**BO'LAJAK BOSHLANGICH SINF O'QITUVCHILARINING AXBOROT-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNI MODELI**

**МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**MODEL OF DEVELOPMENT OF INFORMATION-COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS**

**Saidova Nigora Olimovna<sup>1</sup>, Abdullayeva Barno Sayfutdinovna<sup>2</sup>**

**<sup>1</sup>Saidova Nigora Olimovna**

- Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

**<sup>2</sup>Abdullayeva Barno Sayfutdinovna**

- Pedagogika fanlari doktori, professor

**Annotatsiya**

*Ushbumaqoladabo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentlilagini rivojlantirishni modeliko'ribchiqilgan. Matematik kompetentlikni shakllantirish bugungi kunda katta ahamiyatga ega. Atrofdagi voqe va hodisalarini tavsiflash va tushuntirishda matematik bilimlardan foydalana olish boshlang'ich ta'limdan boshlab Davlat ta'lim standartining talablaridan biri sifatida hizmat qiladi.*

**Аннотация**

В данной статье рассматривается модель развития информационно-коммуникативной компетентности будущих учителей начальных классов. Сегодня большое значение имеет формирование математической компетентности. Умение использовать математические знания для описания и объяснения окружающих событий и явлений является одним из требований ГОСО, начиная с начального образования.

**Abstract**

*In this article, the model of information-communicative competence development of future primary school teachers is considered. Formation of mathematical competence is of great importance today. The ability to use mathematical knowledge to describe and explain surrounding events and phenomena serves as one of the requirements of the State Education Standard starting from primary education.*

**Kalit so'zlar.** Kommunikatsiya, axborotlashtirish, kompetentlik, epistemologik, aksiologik, praksiologik, kasbiy-shaxsiy, kommunikativ, fragmentar, predmetli modellashtirish, prinsip.

**Ключевые слова.** Коммуникация, информация, компетентность, эпистемологический, аксиологический, праксиологический, профессионально-личностный, коммуникативный, фрагментарный, субъектное моделирование, принцип.

**Key words.** Communication, information, competence, epistemological, axiological, praxeological, professional-personal, communicative, fragmentary, subject modeling, principle.

**KIRISH.** Global ommaviy kommunikatsiya sharoitida bugungi kunga kelib eng ahamiyatli manba sifatida axborotni tahlil qilish, tizimlashtirish va talqin qilish qobiliyati hisoblanadi. Global axborotlashtirish jarayoni tabiiy ravishda ta'lim jarayoniga ta'sir qiladi va ta'lim tizimining asosiy vazifasi jamiyat taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalarini aniqlash va ta'lim jarayoniga ijobji tajribani shakllantiradigan hamda zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi, o'quv jarayonini tartibli, boshqariladigan tizimga olib keladigan pedagogik texnologiyalarni joriy etish kabi dolzarb vazifalarni bajaradi. Maqsadimiz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga ko'maklashuvchi modelni yaratish, axborot faolligini namoyon etishning samarali yo'llarini izlashdan iborat. [1; 14-b].

Ta'lim modellarini yaratishga yondashuvlar tahlili o'tkazildi, "Matematika o'qitish metodikasi" fani asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish yo'llari aniqlandi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan hamda didaktik vazifalarni hal qilishga yordam beradigan modelning asosiy konseptual g'oyasi (epistemologik, aksiologik, praksiologik, kasbiy-shaxsiy, kommunikativ) - bu zamonaviy axborot jamiyatni va shaxsini insonparvarlashtirish vositasi sifatida axborot sohasidagi matematikani aks ettirishga yo'naltirilgan. Pedagogik voqelikni obyektiv modellashtirishning asosiy jihatni modelni konseptual, mezon va miqdoriy asoslashda kompleks yondashuvni qo'llash sanaladi.[2; 4-7-b]

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Modelning texnologik komponenti ochib berilgan, uning mezon

## PEDAGOGIKA

komponenti darajalarning ketma – ketlik matriksasi (elementar, o'rta, rivojlangan) va axborot-kommunikativ kompetentligi komponentlari (epistemologik, aksiologik, praksiologik, kasbiy-shaxsiy, kommunikativ) bilan ifodalanadi.

Matematik siki fanlari yordamida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ishlab chiqilgan modeli amalda o'zini oqlaydi, lekin qo'shimcha tadqiqotlar va miqdoriy tahlilga muhtoj. [3; 147-150-b]

Zamonaviy innovatsion texnologiyalar va yondashuvlar matematikaga asoslangan. Zamonaviy axborot-kommunikativ texnologiyalarini (AKT) yaratish birinchi navbatda matematik faoliyat hisoblanadi. Matematik kompetentlikni shakllantirish bugungi kunda katta ahamiyatga ega. Atrofdagi voqe va hodisalarni tavsiflash va tushuntirishda matematik bilimlardan foydalana olish boshlang'ich ta'limganda boshlab Davlat ta'lim standartining talablaridan biri sifatida hizmat qiladi.

Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarida zamonaviy ta'lim standartlari talablariga javob beradigan ko'nikmalarni shakllantirishi kerak. Matematik ta'limni takomillashtirish masalalariga ilmiy adabiyotlarda qiziqish tobora ortib bormoqda. Bizning fikrimizcha muhim yo'naliishlardan biri sifatida, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini ma'lum bir fan asosida rivojlantirish samarali sanaladi, bizning holatimizda "Matematikani o'qitish metodikasi" fanini hizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR TAXLILI

Bir qator pedagogik tadqiqotlar (S.A. Beshenkov, YE.A.Rakitina, M.I. Shutikova) shuni ko'rsatadiki, informatika fani keng fanlararo aloqalarga ega, ayniqsa tabiiy-ilmiy yo'naliish fanlari bilan. Bugungi kunda AKTga bo'lgan qiziqish tobora ko'payib bormoqda, chunki texnik vositalar ma'lumotni tahlil qilish va tizimlashtirish, har qanday axborot jarayonlari asosida yotadigan matematik modellarni amalga oshirish qobiliyatini to'liq shakllantirmaydi. [4; 3-8-b].

Tadqiqotchilarining aksariyati "Informatika", "Ta'limganda axborot texnologiyalarini qo'llash" va boshqa ixtisoslashtirilgan fanlari orqali axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish ustida ishlamoqda. Xuddi shuningdek, tadqiqotchilar (S.A.Zayseva, N.A.Yershova, S.A.Bikov, I.V.Abramova, L.D.Sitnikova, O.P.Osipova) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish muammosini hal qiladilar, biroq, tadqiqot natijalariga ko'ra, "axborot modellari informatika fanining umumiyligi ta'lim kursining "metafan" darajasiga o'tishiga asos yaratadi".[5; 42-51-b].

Ammo, "axborotni modellashtirish" "Informatika" va shunga o'xshash ixtisoslashtirilgan fanlarni, ya'ni tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlarning turli sohalaridagi fanlarga asosolanadi. Bizning fikrimizcha, Y.V.Viktorovaning: "axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish har bir fanni, shu jumladan matematikani o'rganishda amalga oshirilishi kerak" degan fikri asosli. [3; 217-b].

Uning tadqiqotlarida axborot-kognitiv vazifalar axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadigan individual kodlash uslublarini shakllantirishga hissa qo'shishi isbotlangan. Muallif matematikani o'qitish jarayonida axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijobjiy tajribasini, ya'ni rivojlantirishning ijobjiy tendensiyalarini namoyish etadi. Bugungi kunda bizda ushbu sohada ko'plab tadqiqotlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.


## NATIJA VA MUXOKAMA

Matematik masalalarni yechishda algoritmik faoliyatga e'tibor berish axborotni tahlil qilish, sintez qilish va vizualizatsiyalash qobiliyatining shakllanishiga yordam beradi, deb faraz qildik, bu esa o'z navbatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini shakllanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni ko'p komponentli bo'lib, ko'p darajali modelni ifodalaydi. Pedagogik loyihalash natijasida biz ko'p qirrali, stoxastik xarakterdagи pedagogik voqelik obyektni o'rganish uchun mo'ljallangan dinamik modelni ishlab chiqdik (6-rasm). Fragmentar va predmetli modellashtirish prinsipini qo'llagan holda biz pedagogik voqelikning quyidagi jihatlariga: maqsad modelini yaratish, modellashtirishga kompleks yondashuvni qo'llash, modelning konseptual, mezon, miqdoriy asoslanishlariga asoslandik. [6; 101-110-b].

"Matematika o'qitish metodikasi" fanining maqsadi talabalarning mehnat funksiyalarini bajarishga tayyorligini shakllantirishni nazarda tutadigan konseptual asosga ega. Pragmatik

maqsad ilmiy bilimlarning, xususan matematika va informatika fanlarining yagona falsafiy kelib chiqishi bilan belgilanadi



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun matematika kursining mazmuni fan bo'yicha zarur bo'lgan bilimlar tizimini o'z ichiga oladi. Bu, albatta, yuqori darajadagi malakaning asosidir. Biroq, bizning fikrimizcha, zamонавиј matematika fani nafaqat bilimlar tizimi sifatida, balki tadqiqot vositasi, ijtimoiy-madaniy hodisa, ijtimoiy-madaniy fenomen, shaxsni va informatzion jamiyatni insonparvarlashtirish vositasi sifatida aks ettirilishi kerak. Modelni amalga oshirish texnologik blokda aks ettirilgan va ta'limda insonparvarlashtirish tamoyillariga asoslangan ta'lim muhitini

## PEDAGOGIKA

yaratishga asoslangan. Modelning nazariy-metodologik asoslari ustida ish olib borib, ta'limda madaniy, kompetensiyaga asoslangan, tizimli va faoliyatga asoslangan yondashuvlarga tayandik. Pedagogik konsepsiyanı yaratish ijodiy va mavhum jarayondir, chunki pedagogika fanida fundamental g'oya ustida ishlashning aniq qoidalari yo'q. Ma'lumki, amalda muallifning konseptual g'oyasini takrorlash mumkin emas. [7; 53-59-b]

"Matematika o'qitish metodikasi" faning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot-kommunikativ kompetentligini biz matematika va informatika fanlari o'tasida o'xshashliklarni keltiramiz. Masalan, sanoq sistemalarini o'rganishda axborotni kodlaymiz (harflarni binar kod yordamida shifrlaymiz), matematikada munosabatlarni o'rganishda albatta grafik tuzamiz, bu tushuncha bilan tanishish axborotni dekodlashda yordam beradi.[8; 290-293-b]

### XULOSA

Tadqiqot ishimiz shuni ko'rsatdiki, mutaxassislarini axborot-kommunikativ sohasi bo'yicha tayyorlashning yuqori samarali kasbiy yo'naltirilgan tizimlari pedagogikaning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qoladi, chunki jamiyatni global axborotlashtirish sharoitida bitiruvchilarning raqobatbardoshligi asosan ularning axborot-kommunikativ kompetentligi darajasi bilan belgilanadi va OTM reytingi, uning obro'si, ta'lim jarayonini hamda jamiyatni axborotlashtirish tendensiyalari bilan o'chanadi.

### ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sон "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"/29
2. Saidova N. Bo'lajak boshlangich sinf oqituvchilari kompetentligini oshirishda axborot texnologiyalarining orni //Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar. – 2022. – Т. 1. – №. 22. – С. 4-7.
3. Saidova Н.О. Бўлажак ўқитувчиларнинг компетентлигини шакллантириш муаммолари //international scientific and practical conference "the time of scientific progress". – 2022. – т. 1. – №. 1. – с. 147-150.
4. [Grinshkun V.V., Remorenko I.M. Frontiri «Moskovskoy elektronnoy shkoli» // Informatika i obrazovaniye. 2017. № 7 (286). S. 3-8.]
5. [Beshenkov S.A., Rakitina YE.A., Mindzayeva E.V. Informatsionnoye obrazovaniye v Rossii // Znaniye. Ponimaniye. Umeniye. 2013. № 3. S. 42–51.. str. 45].
6. [Viktorova Y.V. Formirovaniye IKT-kompetentnosti uchashixsy 9-x klassov v protsesse obucheniya matematike: dis kand. ped. nauk. Yekaterinburg, 2016. 217 s.].
7. Maktab yoshidagi bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish. N.O.Saidova, M.S.Yigitaliyeva. Results of National Scientific Research (2022)1 (3), p.53-59.
8. Saidova Н. О., Рустамова Ш. Ш. К. Мактабгача ёшдаги болаларда математик тушунчаларни шакллантиришнинг замонавий технологиялари //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. Special Issue 2. – С. 290-293.